

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 36 813,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 6,4 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 110,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 4,6 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida Buxoro viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	31 293,5	36 813,1	106,4
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 684,2	35 974,7	106,4
mahsulotlarga sof soliqlar	609,3	838,4	109,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 684,2	35 974,7	106,4
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9 006,4	10 353,3	103,8
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	9 975,6	11 698,3	106,9
sanoat	6 437,2	7 804,4	107,3
qurilish	3 538,4	3 893,9	106,0
xizmatlar	11 702,2	13 923,1	107,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 938,6	4 808,3	111,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 816,8	2 306,3	115,1
boshqa xizmat tarmoqlari	5 946,8	6 808,5	103,4

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 17 671,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,8 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,1	97,7
mahsulotlarga sof soliqlar	1,9	2,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	29,4	28,8
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	32,5	32,5
sanoat	21,0	21,7
qurilish	11,5	10,8
xizmatlar	38,1	38,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12,8	13,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,9	6,4
boshqa xizmat tarmoqlari	19,4	18,9




2025- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,3 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 28,8 % ni, sanoat tarmog'i 21,7 % ni, qurilish 10,8 % ni va xizmatlar sohasi 38,7 % ni tashkil qildi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,1 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,5 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 1,4 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,9 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 3,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,8 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 28,8 %), sanoatda – 107,3 % (21,7 %), qurilishda – 106,0 % (10,8 %), xizmatlar sohasida – 107,9 % ni (38,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,4 % (13,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,1 % (6,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,4 % dan (18,9 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



6,8 %

YAHM

6,4 %



3,5 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

3,8 %



6,8 %

Sanoat

7,3 %



9,8 %

Qurilish

6,0 %



9,2 %


Xizmatlar

7,9 %



2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 110,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 112,9 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 110,7 % qayd etildi.

**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 25 368,5 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 21 694,4 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 70,5 % ni (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 70,7 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

21 694,4

70,7 %

2025- yil

25 368,5

70,5 %

